

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARNING TA’LIMIY-TARBIYAVIY

AHAMİYATI

Xazratkulova Shoira Noraliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasи o’qituvchisi

Abdiraxmonov Shahobiddin Xayrulla o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada farzand tarbiyasi haqida, farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, ota-onaning farzandga beradigan nasihatlari to’g’risida fikr yuritish.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, rostgo’ylik, mehmono’stlik, do’stlik, mutafakkirlar fikrlari .

Bugungi kunda yoshlarimizga, ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilmoqda. Yosh avlodning komil,yetuk inson bo’lib yetishishida ta’lim va tarbiyaga alohida o’rin egalladi. Buyuk alloma Abdulla Avloniy tarbiya haqida shunday deydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”[1].

Hozirgi kunda yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda allomalarimiz asarlaridan, o’gitlaridan foydalanmoqdamiz. Tarbiya bilan ta’limni qushning ikki qanotiga o’xshatamiz. Agar insonda tarbiya bo’lmasa, ta’limni ham shakllantirib bo’lmaydi[4].

Farzandlarga tarbiya ona qornidaligidan beriladi. Ota-onalar farzandini tug’ilganidan oq yuvib, oq tarab, birovdan kam bo’lmasin deb o’sтирди. Ularning tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Bu borada azaldan ajdodlarimiz o’z asarlarida tarbiyalash, ta’lim berish yo’llarini, usullarini tavsiya qilib boradi[5].

Bunga misol Kaykovusning “Qobusnoma” asarini olsak bo’ladi. Ushbu asar Sharqiy va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy asar hisoblanadi. Bu asarni muallif o’g’liga atab yozgan. ”Qobusnoma”da tarbiya, ta’lim, rosygo’ylik, do’stlik haqida nasihatlar berilgan. Muallif o’g’lini ertangi kun kelajagini o’ylab ushbu asarni yozib, undagi nasihatlarga amal qilishga undaydi[16]. Asarning asosiy qismini Qun’oni Karim suralari, payg’ambarlarimiz hadislaridan tashkil topgan asar hisoblanadi. Asar 44 bobdan iborat. Har bir bobda farzandlarni komil inson qilib tarbiyalashda zarur bo’ladigan nasihatlar keltirilgan[6].

“Qobusnoma” asarida ota-onha qilmoq haqida ushbu nasihatlarni berib o’tadi: ”Ey farzand, bilginki, aql yuzasidan farzandga ota va onani hurmat va izzat qilish vojibdir. Ota-onani nima uchun hurmat qilaman deb ko’nglinga keltirmagin, bilginki, ular sening uchun o’limga ham tayyor turadilar”[7].

Haqiqatan ham, ota-onha farzandi uchun jonini berishga ham tayyor, shunday farzandlar ham borki, ular ota-onasini o’ylamaydi. Biror ayb ish qilib qo’ysa, darrov ota-onasining oldiga kelib yordam berishlarini so’raydi[17]. Ota-onha farzandi bo’lganidan keyin unga nima uchun bunday qilding demasdan, ayb o’g’lida bo’lsa ham unga yordam bermaydi[8].

O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari“ asari onalarga bag’ishlangan asar hisoblanadi. Unda ona o’z farzandini ishdan kech qaytgan paytlariyarm kechagacha kutib o’tiradi. O’g’il kelib: ”Ona, nega uxlamadingiz?”, - deb so’rasa, ona: ”Ey bolam, uyqu qayda”, -deb javob beradi. O’g’il kasal bo’lib qolganda sovuqda uni ko’tarib tabibning oldiga olib boradi. O’shanda ona oyog’ini shamollatib qo’yadi va oyoqsiz bo’lib qoladi[18].

Mana ko’ryapsizlarki, ona farzandini o’ylab sovuqda qaramasdan uning tuzalib ketishini o’ylab oyog’ini shamollatib qo’yadi. Lekin hozirda ayrim farzandlar onalarining qilgan yaxshiliklarini darrov unutib qo’yishadi. Shunday ekan, har birimiz ota-onamizning qadriga yetib, ularning duosini olib, rozi qilishimiz kerak. Bu dunyoda bola uchun ota-onaning kattakichigi bo’lmaydi, ota-onha uchun ham bolaning katta-kichigi bo’lmaydi[9].

Ushbu “Qobusnoma” asarida mehmon kutish haqida nasihatlar keltirilgan:

“Ey farzand, har kun begona odamlarni mehmon qilmagin, chunki har kun mehmon olsang, mehmonga loyiq bo’lgan ishlarni ko’ngil murodicha qila olmaysan. Inson ko’ngli har oyda ko’p marotaba chaqirgin, istasang bir marotaba chaqirgin, necha marotaba qiladigan xarajatingni bir marotaba qilgin, to dasturxoning aybsiz bo’lg’ay va ayb qidiruvchilarni tili bog’liq bo’lsin”[10].

Xalqimizda sgunday maqol bor:

Mehmon kelsa eshikdan,

Rizqi kelar teshikdan.

Biz o’zbek xalqi mehmondo’st xalq hisoblanamiz. Barchamiz mehmon kutishni yaxshi ko’ramiz. Uyga mehmon keldimi, albatta, u o’z rizqi bilan keladi[19], Alloh rizqi bilan yuboradi. Daraxt bor ekan, unga qush qo’nadi, uy bor ekan, albatta, mehmon keladi. Mehmon biz uchun mo’tabar zot hisoblanadi. Mehmon kutayotgan har bir inson yaxshi fazilatli, ochiq ko’ngilli bo’lmog’i kerak. Mehmon kelgan har bir uy barakali hisoblanadi.

“Qobusnoma” asarida do’st bo’lmoq haqida ham fikr yuritilgan:

“Ey farzand, kishi tirikdir, do’stsiz bo’lmaydi. Kishining do’stsiz bo’lganidan birodar bo’lgani yaxshidir. Har bir kishining do’sti ko’p bo’lsa, ayblari shuncha sir bo’ladi”.

Buyuk so’z ustasi Alisher Navoiy do’st haqida ushbu naqlni keltirib o’tadi:

“Do’st uldurki, o’ziga ravo ko’rmagan narsani do’stiga ham ravo ko’rmaydi. O’zi do’sti uchun o’limga tayyor bo’lsa ham do’stini bu ishda sherik qilmaydi”[11].

Do’st haqida Ezopning masalini keltirib o’tish joizdir. Masalda bir cho’pon echkilarini yaylovga qo’yib yuboradi. Bir payt qarasa, echkilari yovvoyi echkilar bilan o’tlashib yuribdi. Kech bo’lgach hammasini g’orga qamaydi. Ertasi havo yaxshi bo’lmaganligi sababli, g’orda boqadi va o’zining echkilariga nomigagina yem soladi, yovvoyi echkilarga mo’l qilib to’kadi. Ertasi kuni echkilarni chiqarsa, ular tog’ga qarab qochadi[20]. Cho’pon ularni yaxshilikni bilmaydigan nonko’rlar, deb koyiydi. Men sizlarni o’zimmi echkilardan yaxshi boqmadimmi, deydi. Shunda yovvoyi echkilar, shuning uchun ham sendan uzoqroq yurishimiz kerak. Senga yo’liqqandik, sen esa bizni o’zingni echkilaringdan yaxshiroq ko’rding, deydi. Ushbu misoldan o’zimizga kerakli bo’lgan fikrni olishimiz kerak. Yangi do’stlarni orttiranimizda eskilarini unutib qo’ymasligimiz kerak. Undaylar bilan ham do’st bo’lishga shoshilmasligimiz kerak. Yangi do’stlar orttirganda biz ham eskilardan bo’lib qolamiz. Har birimiz do’st-u dushmani ajratib olishimiz kerak[12].

Do’st achitib gapirar,

Dushman kuldirib.

Do’st bo’lgan kishi uning ishlari haqida jiddiy ohangda turib haqiqatni gapiradi. Dushman esa uni kuldirib gapiradi. Bu maqol orqali ham do’st-dushmani ajratib olsak bo’ladi.

“Qobusnoma” asarida farzand parvarish qilish haqida shunday nasihat qilinadi:

“Ey inson, agar farzanding bo’lsa, unga yaxshi ot qo’ygin. Chunki ota-onaning farzand oldidagi haqlaridan biri yaxshi ot qo’ymoqlikdir. So’ng o’qishni ulug’roq bo’lgandan so’ng, agar yaxshi xulqli bo’lsang, unga ilm va hunar o’rgatasan. O’g’lingni ilmli, hunarli qilib tarbiyalaysan.

Xalqimizda shunday maqol bor:

Ilmli ming yashar,

Ilmsiz bir yashar.

Har bir inson farzand parvarish qilishda unga ilm berish, qanday qilib ilmni egallash haqida nasihatlar berib boradi. Farzandi uchun kerakli bo’lgan hunarlarni o’rgatadi. Buyuk hadisshunos bobomiz Imom al-Buxoriy ilm o’rganmoq va ilmni o’rgatmoq haqida hadislar keltirib o’tadi:

“Ilm o’rganmoq va ilm o’rgatmoq uch guruhga bo’lib tasnif qilinadi. Birinchisi, bir kishi alloh ilmini teran o’rganadi va undan manfaatlanadi. O’zi ham o’rganadi, o’zgalarga ham o’rgatadi, bunday kishi mo’min hisoblanadi[13].

Ikkinchisi, bir kishi ilm o’rganadi, odamlarga o’rgatadi, lekin o’zi amal qilmaydi. Bunday kishilar fosiqlardir.

Uchinchisi, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi, bunday kishilar kofir sanaladi”.

Ilm-hunarni bir kun kelib biror kor-holimga yarab qolar deb o'rganmasdan, hayotda uni tur mushga tadbiq qilish maqsadida o'rganmoq kerak. Ilmni o'rganganda yaxshi niyat bilan yaxshilab o'rganish lozim. Ilmni egallash uchun odamda ikkita narsa bo'lishi lozim: birmulohaza yuritish, ikkinchisi-muhofaza qilish. Bu ikki xususiyatni doim kuchaytirib borish kerak[14].

Xulosa o'rnida shuni aytish kerarakki, avvalo, ota-onas farzandining tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishi kerak. Farzandiga bolaligidan yaxshi tarbiya berib voyaga yetkazsa, kelajakda ota-onalarining yuzini yerga qaratmaydigan, ularning nomini dunyoga tanitadigan farzand bo'lib yetishadi. Tarbiyalni inson har qanday inson bilan muomalaga kirishadi[15]. Jamoat joylarida kattalarning gapiga quloq solishi, ularning fikrini diqqat bilan tinglashi lozim. Bu ham farzandning yaxshi tarbiya ko'rganidan darak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Kaykovus."Qobusnoma".Toshkent-1994.
2. Imom al-Buxoriy."Al-jome as-sahih" ."Tafakkur".Toshkent-2019.
3. Khazratkulova Shoira Noralievna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral.
4. Babanazarovich, N. H. (2020). Technology of organization of integrated lessons in teaching biology. European journal of research and reflection in educational sciences, 8(2).
5. Норбутаев, Х. Б. (2018). Технологии Развивающего Обучения В Системе Образования. Гуманитарный трактат, (29), 33-35.
6. Норбутаев, Х. Б. (2017). Формирования Экологического Знания У Школьников Изучение Учебных Материалов По Физики. Апробация, (2), 95-96.
7. Babanazarovich, N. H. (2021). Using of Innovative Educational Technologies in the Improvement of Ecological Thinking by Pupils in the Field of Biology Sciences. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(6), 84-88.
8. Narbutaev, H. B. (2021). Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. Current Research Journal Of Pedagogics, 2(10), 12-16.
9. Норбўтаев, Х. Б. (2016). Бошланғич синф табиатшунослик дарсларида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси. Современное образование (Узбекистан), (6), 34-39.

10. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишида Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. Современное образование (Узбекистан), (8 (93)), 74-79.
11. Норбутаев, X. (2012). Мактаб укувчиларида экологик тафаккурни фанлараро шакллантириш (биология ва физика фанлари мисолида). Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.
12. Narbutaev, K. B. (2020). RAISING THE ECOLOGICAL CULTURE OF THE STUDENT IN TEACHING BIOLOGY IN CONNECTION WITH OTHER DISCIPLINES. *Theoretical & Applied Science*, (6), 714-717.
13. Babanazarovich, N. H. (2021). The essence of integration in primary education classes.
14. Babanazarovich, N. H. (2022). IMPROVING THE KNOWLEDGE OF ECOLOGICAL CONTENT IN PUPILS IN INTERDISCIPLINE FOR TEACHING BIOLOGY. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
15. Норбўтаев, Х. Б. (2018). Бошлангич синфларда фанлараро экологик тарбия. Современное образование (Узбекистан), (11), 53-58.
16. Narbutaev, H. B. (2021). Natural inter subjects formation of ecological thinking in school pupils. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 419-426.
17. Норбўтаев, X. B. (2015). Бошлангич синфларда дидактик ўйинли таълим технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги. Современное образование (Узбекистан), (6), 64-70.
18. Норбутаев, X. B. (2018). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР НА КЛАССНЫХ И ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЯХ. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 53.
19. Норбутаев, X. B. (2018). Развитие Экологического Мысления У Школьников При Изучение Учебных Материалов По Биологии The Development Of Ecological Thoughts Of Pupils Through Learning Of Biology. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 16.
20. Норбўтаев, X. B. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишида Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. Современное образование (Узбекистан), (8 (93)), 74-79.